

1/2024,
yanvar-
fevral
(№ 00069)



SOLIQ QARZDORLIGINI QISQARTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH YO‘LLARI

Hakimov Ulug‘bek Furqat o‘g‘li

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). ulajaha12@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-1902-1763>

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol12_iss1/i24

Annotatsiya

Mazkur maqolada soliq qarzdorligi paydo bo‘lishining asosiy sabablari tadqiq etilgan. Shuningdek, mamlakatda soliq qarzdorligi vujudga kelishi yuzasidan xorijiy iqtisodchi olimlarning fikr-mulohazalari o‘rganilgan. Rivojlangan mamlakatlar tomonidan soliq qarzdorligini undirish amaliyoti tadqiq etilgan. Yuqorida qayd etilgan holatlardan kelib chiqib, mamlakatimizda soliq qarzdorligini qisqartirish, shu jumladan uni samarali undirish amaliyotini yanada takomillashtirish borasida takliflar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlari: Soliq organi, soliq to‘lovchilar, yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar, soliq yuki, soliq madaniyati, soliqlar va yig‘imlar, soliq qarzdorligi, davlat, budget.

ПРИЧИНЫ ВОЗНИКНОВЕНИЯ НАЛОГОВОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ И ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЕЕ СНИЖЕНИЯ

Хакимов Улугбек Фуқрат угли

Независимый исследователь Ташкентского международного университета Кимё. Доктор философии (PhD) по экономическим наукам.

Аннотация

В данной статье изучены основные причины возникновения налоговой задолженности. Также были изучены мнения зарубежных экономистов относительно возникновения налоговой задолженности в стране. Изучена практика взыскания налоговой задолженности развитыми странами. На основании вышеизложенных обстоятельств внесены предложения по сокращению налоговой задолженности в нашей стране, в том числе по дальнейшему совершенствованию практики ее эффективного взыскания.

Ключевые слова: Налоговый орган, налогоплательщики, юридические лица, индивидуальные предприниматели, налоговое бремя, налоговая культура, налоги и сборы, налоговая задолженность, государство, бюджет.

REASONS FOR TAX DEBT AND THE MAIN DIRECTIONS FOR ITS REDUCTION

Khakimov Ulugbek

Independent researcher of Kimyo international university in Tashkent. Doctor of philosophy (PhD) in economical sciences.

Abstract

This article examines the main causes of tax debt. The opinions of foreign economists regarding the occurrence of tax debt in the country were also studied. The practice of collecting tax debts in developed countries has been studied. Based on the above-mentioned circumstances, proposals and recommendations have been formulated to reduce tax debt in our country, including improving the practice of its effective collection.

Key words: Tax authority, tax payers, legal entities, individual entrepreneurs, tax burden, tax culture, taxes and fees, tax debt, state, budget.

Kirish

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlariga keng imkoniyatlar yaratilib kelinmoqda. Xususan, biznes yuritishni soddalashtirish, soliq yukini pasaytirish, yangi loyihalarni amalga oshirish uchun qulay moliyalashtirish tizimi va infratuzilma yaratish hamda mulk huquqini ta'minlash bo'yicha izchil ishlar amalga oshirildi. Tadbirkorlik subyektlarini mikro, kichik, o'rta va yirik toifalarga, tuman va shaharlarni esa 5 ta toifaga ajratish orqali tadbirkorlikni manzilli qo'llab-quvvatlash tizimi yo'lga qo'yildi. [1] Shuningdek, kelgusida tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiyl sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish maqsadida, 2026-yilga borib tadbirkorlik subyektlariga soliq yuklamasini yalpi ichki mahsulotning 27,5 foizidan 25 foizi darajasigacha kamaytirish asosiy ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab olindi. [2]

Hukumatimiz tomonidan mamlakatda tadbirkorlik faoliyatlarini keng qo'llab-quvvatlash pirovardida, kelgusida budjetga soliq tushumlari oshishiga va mamlakatni yanada iqtisodiy mustahkam bo'lishiga ishonch bildirilmoqda. Hammamizga ma'lumki, davlatimiz budjeti daromadlarining 80 foizidan ortiq qismi aynan soliqlar hisobiga shakllanadi. Soliq to'lovchilar tomonidan soliqlarning belgilangan muddatda va miqdorda to'lab berilishi davlat tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar xarajatlari qismini moliyalashtirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib soliqlarning belgilangan muddatda va to'liq hajmda kelib tushishi muhim ahamiyatga egadir. Bu o'z navbatida, nafaqat soliq to'lovchilarga, balki soliq organlariga ham soliqlarni budjetga o'z vaqtida tushishini ta'minlashda, shu jumladan soliq qarzdorligini qisqartirishda mas'uliyatli vazifa yuklaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Mamlakatda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida soliq qarzdorligini vujudga kelish sabablarini o'rganish hamda ularni qisqartirishning ayrim masalalari bir qator xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Mazkur masala bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borgan rus tadqiqotchisi V. Morozning fikriga ko'ra, "Soliq to'lovchilarning soliqlar va soliq qarzini bir xil mazmunda tushunishi chalkashliklarni keltirib chiqaradi. Hech qachon sud yoki soliq organi soliqlarni undirmaydi. Faqatgina soliq qarzdorligi, penya hamda moliyaviy sanksiyalar undirishni talab etadi. Hattoki, soliq qarzi ham undirilmay, balki ixtiyoriy ravishda to'lanishi mumkin. Aynan shu xulosa nafaqat soliq qonunchilikda belgilab qo'yilsa va buning natijasida fuqarolarning huquqiy ongida ham aks etsa, balki soliq to'lovchilar uchun soliqlar "erkinlik" belgisi sifatida ham namoyon bo'ladi" - deb ta'kidlab o'tgan. [3]

S.Proninning fikriga ko'ra, yuridik shaxslar, shu jumladan, yakka tartibdagi tadbirkorlar soliq qarzlarning paydo bo'lishini 3 guruhga bo'lib o'rganish lozim:

1. Iqtisodiy xarakterdagi sabablar o'z navbatida 3 ta guruhga ajratiladi:

- makroiqtisodiy sabablar jumlasiga mamlakatdagi iqtisodiyotni beqarorligi (inqiroz), mamlakat va uning ichidagi hududlarning daromad olish bo'yicha iqtisodiy sohalarini bir xilda rivojlanmasligi, aksariyat soliq to'lovchilarning ishlab chiqarishdagi rentabellik darajasini tushib ketishi natijasida soliq va to'lovlarni to'lay olmasligi, og'ir moliyaviy holatning yuzaga kelishi, umumiy to'lov intizomini qoniqarsiz darajada ekanligini keltirish mumkin;

- ichki (tarmoq) sohaviy sabablarga iqtisodiyotning yetakchi sohalarida yangi innovatsion siyosatni yuritilmasligini keltirish mumkin. Buning natijasida esa shu sohadagi ishlab chiqarish yangi jihozlar bilan modernizatsiya qilinmay qoladi va ishlab chiqarilayotgan tovar (ish va xizmatlar) bozorda o'z o'rnini hamda xaridorlarini yo'qotadi. Shu sababli, ushbu soha inqirozga yuz tutadi va soliq qarzdorligini kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

- mikroiqtisodiy sabablarga yuridik shaxslarni boshqarishda ichki rahbarlikni qoniqarsizligi, marketingni yaxshi o'zlashtirmaslik, hamkorlarni tanlay bilmaslik va moliya-xo'jalik faoliyati bo'yicha buxgalteriya hamda soliq hisobining past darajada yuritilishi, kuchsiz moliyaviy nazoratning o'rnatilganligini keltirish mumkin. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes subyektlarining iqtisodiyotdagi o'rnini yuqori bo'lib bormoqda. Shu bilan birga ular tomonidan foydani maksimallashtirish nuqtai nazaridan soliq to'lovlarni rejalashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Buning uchun ular mustaqil ravishda soliq bazasini turli yo'llar bilan kamaytirishni ko'zlamodalar. Albatta, bu masalada ma'lum haq evaziga "soliq maslahati" yoki "auditor" tashkilotlari xizmatlaridan foydalanuvchi, yirik aylanma mablag'iga ega subyektlar ham topiladi. Aksariyat hollarda esa kichik biznes subyektlari mustaqil ravishda bu ishlarni amalga oshirib, natijada qo'pol xatoliklarga yo'l qo'yadi. Yo'l qo'yilgan xatoliklar soliq tekshiruvlarida aniqlanib, ularga nisbatan qo'shimcha soliqlar hisoblanib, jarimalar qo'llaniladi.

2. Tashkiliy-huquqiy xarakterdagi sabablarni ikki turga bo'lib o'rganiladi, ya'ni:

- soliqqa oid huquqiy bazaning to'liq yetarli darajada shakllanmaganligi oqibatida soliq qarzdorligini majburiy undirish bo'yicha sud organlariga kiritiladigan arizalarning ko'rmay qoldirilishi yoki soliq qonunchiligidagi boshqa kamchiliklar sababli soliq qarzdorligini undirish jarayonini to'xtatib qo'yilishi mumkin;

- soliq qarzini undirish tuzilmasini mukammallashtirmaganligini quyidagi sifatlar bilan izohlash mumkin deb o'ylaymiz. Soliq qarzini undirish tuzilmasi:

a) tashkilotlaridagi xodimlar sonining kamligi;

b) tashkilotlarining quyi tuzilmalari, hududlardagi bo'lim va tashkilotlaridagi xodimlarning bilim va kasb mahorati hamda mehnat unumdorligini pastligi, mehnat intizomiga to'liq rioya etilmasligi;

v) tashkilotlarining o'zaro hal etilmagan muammolari mavjudligi;

g) texnik va texnologik jihatdan yaxshi jihozlanmaganligi.

3. Ma'naviy-ruhiy xarakterdagi sabablar esa quyidagi 2 turga bo'lib o'rganiladi:

- soliq madaniyatining pastligi (yo'qligi). Jamiyatdagi ayrim yuridik shaxslarning rahbar va mansabdor shaxslarini fikricha, "soliqlarni to'liq hamda o'z vaqtida to'lash" va "muvaffaqiyatli biznes" tushunchalari bir-biriga teskari hisoblanadi. Aynan shu turdagi soliq

to'lovchilar soliq organi tomonidan tekshirilib, ularga nisbatan qattiq jazo choralari ko'riladi va jarimalar qo'llaniladi;

- soliq qarzini undirish muqarrarligini tushunib yetmaslik. O'tkazilgan tekshiruvlar natijasida qo'llanilgan jarima va qo'shimcha hisoblangan soliqlar yoki bo'lmasa tekshiruvgacha bo'lgan muddatda yashirilgan, to'lashdan qochilgan, muddatida to'lanmagan soliqlar davlat budjetiga bir kun kelib undirib olinadi. Yuridik shaxslarga bankrotlik alomatlari qo'llanilgan taqdirda ham subsidiar javobgarlik choralari mavjudligini unutmazlik lozim bo'ladi. [4]

Mahalliy iqtisodchi A. Jo'raevning o'zining tadqiqot ishida davlat budjeti daromadlarini shakllantirish borasidagi muammolarni tahlil qilishga bag'ishlagan. Aynan ushbu tadqiqotda mamlakatimizda ilk bor davlat budjeti solikli daromadlari ijrosida to'lov intizomi, soliqlarni undirishda budjetga qarz (boqimanda) vujudga kelish holatlari tadqiq qilingan. [5]

Xorijiy iqtisodchi olim E. Borgnening fikricha, odatda soliq to'lovchilar tomonidan soliqlar hisoblanib, soliq organiga deklaratsiya taqdim etganida, ammo ular bo'yicha bajarilmagan (to'lanmagan) soliq majburiyatiga soliq qarzadorligi deb aytiladi. Bunday holatda soliq to'lovchi soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etgan soliq to'lovchi, shuningdek hisobot topshirilib soliq majburiyati bajarilmagan yoki to'liq bajarilmagan taqdirda u soliq to'lashdan bo'yin tovlash hamda soliq to'lovchi esa soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlayotgan shaxs sifatida qaraladi. [6]

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy mushohada, statistik kuzatish, statistik grafiklardan foydalanilgan holda qiyosiy tahlil, ma'lumotlarni guruhlash, absrakt-mantiqiy fikrlash, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Ushbu tadqiqot usullari soliq ma'murchiligini, xususan soliq qarzadorligini qisqartirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha xulosa va takliflarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar

Mamlakatimizda soliq qarzadorligini undirish mexanizmini takomillashtirishda soliq ma'murchiligini to'g'ri tashkil etish, soliq qonunchiligida belgilangan normalarga qonunosti hujjatlar ya'ni nizom, tartib yoki yo'riqnomalar ishlab chiqish va asosiysi ishlab chiqilayotgan soliq qonunchilik hujjatlari shaffof va adolatli bo'lishi muhim ahamiyatga egadir. Shu bilan birgalikda, rivojlangan mamlakatlarning samarali tajribalarini o'rganish va ularni amaliyotga joriy etish ham soliq qarzadorligini undirish mexanizmini yanada takomillashtirishda ijobiy rol o'ynaydi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, bugungi kunda xorij mamlakatlari tomonidan amaliyotda qo'llanilayotgan soliq qarzadorligini undirish mexanizmlarini quyidagi davlatlar misolida ko'rib chiqishimiz mumkin:

1. Ispaniya davlatida soliq to'lovlarini kechiktirish yoki to'lamaslik quyidagi jarimalarni solishga sabab bo'ladi:

1-jadval

Ispaniyada soliq qarzigaga nisbatan hisoblanadigan foiz (penya) tahlili

Muddatlar	Stavka
Yanvar-mart	qo'shimcha 5 %
Aprel-iyun	qo'shimcha 10 %
Iyul-dekabr	qo'shimcha 15 %
Bir yildan keyin	qo'shimcha 20 %

Yuqoridagi 3.2-jadval ma’lumotlaridan ko’rinib turibdiki, Ispaniya davlatida soliqlar va boshqa to’lovlarni kechiktirib to’lash yoki soliq qarzdorligi o’z vaqtida to’lamaslik, soliq summasiga nisbatan o’sib boruvchi tartibda foiz miqdorida moliyaviy jarimalar qo’llaniladi. Soliqlarni to’lash muddati o’tganidan so’ng soliq to’lovlari qancha tez to’lansa, shuncha jarima stavkasi past bo’ladi.

Shuningdek, Ispaniya soliq deklaratsiyasini (hisobot) kechiktirib taqdim etish yoki taqdim etmaganlik uchun jarima 100 yevro, agar soliq organi tomonidan soliq deklaratsiyasini taqdim etish to’g’risida ogohlantirish olganidan keyin ham soliq deklaratsiyasi taqdim etilmasa 200 yevroga jarimaga tortiladi.

Bundan tashqari Ispaniyada soliq qonunchiligini buzilishiga qarab 3 turdagi jarimalar qo’llanilishi mumkin:

- kichik qoidabuzarliklar soliq qarzdorligi summasining 50 foizi miqdorida jarima, shuningdek, foiz (penya)lar;

- jiddiy qoidabuzarliklar sodir etilsa, soliq qarzdorligi summasining 50-100 foiz miqdorigacha jarima, shuningdek, foiz (penya)lar;

- juda jiddiy qoidabuzarliklar sodir etilsa, soliq qarzdorligi summasining 100-150 foiz miqdorigacha jarima, shuningdek, foiz (penya)lar undiriladi.

Agar soliq to’lovchi soliq summalarni qasddan yashirishga harakat qilmagan bo’lsa va soliq qarzdorligi summasi 3 000 yevrodan kam bo’lsa kichik qoidabuzarliklarda nazarda tutilgan tartibda foizlar qo’llaniladi.

Jiddiy qoidabuzarliklarga soxta hujjatlar aniqlanganda yoki deklaratsiyalarni qasddan soxta rasmiylashtirilishi kiradi.

Yuqorida ko’rsatib o’tilgan jiddiy qoidabuzarliklar bir yil ichida qayta takrorlansa, juda jiddiy qoidabuzarliklar sifatida qaraladi va eng yuqori stavkalarda jarimaga tortiladi.

Shuningdek, soliq to’lovchining soliq qarzdorligi uzilmay qolaversa, soliq qarzdorligini undirishni soliq to’lovchining bankdagi hisobvarag’iga yoki mol-mulkiga qaratiladi. [7]

2. Yaponiya davlati soliq organida soliq qarzdorligini so’zsiz mustaqil undirish vakolati mavjud bo’lib, unga asosan, qarzdor (kreditor) tomonidan majburiyat bajarilmagan taqdirda, soliq organi mustaqil ravishda majburiy undirish vositalarini qo’llay oladi. Xususiylar qonunchilikda majburiyatning kreditor tomonidan mustaqil majburiy undirish taqiqlangan bo’lsada, davlat qonunchiligining muhimligi va to’lov muddati o’tgan davlat soliqlarining ko’pligi, ko’p qaytarilishini va ularni undirish murakkab jarayonlarini talab qilishini hisobga olib, majburiy undiruv bilan shug’ullanuvchi davlat soliq xizmati xodimlariga mustaqil undirish vakolati berilgan. Davlat solig’i muddatida to’lanmagan taqdirda qarzdorning ahvolidan kelib chiqib, davlat soliqlarni to’lash yoki undirishni yengillashtirish tizimi belgilangan:

a) Xatlangan mulkni realizatsiya qilishni kechiktirish.

Qarzdorda ma’lum bir sabablar bo’lsa, xatlangan mulkni realizatsiya qilishni kechiktirib, qarzdorning ish (tadbirkorlik) faoliyatini davom ettirishi yoki yashash sharoitini saqlashiga imkon yaratish orqali davlat bo’lgan soliq qarzini bosqichma-bosqich undirib olish tizimi mavjud.

b) Soliq qarzini majburiy undirishni to’xtatish.

Majburiy undiruvni amalga oshirish tufayli soliq qarzi qarzdorning yashash sharoitiga sezilarli putur yetishi xavfi mavjud bo’lgan taqdirda, majburiy undirish jarayoni to’xtatilib,

ushbu holat 3 yil davom etadigan bo'lsa, qarzdorni soliq majburiyatidan ozod qilish imkoni beriladi.

Soliqlarni undirish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan to'lovlar davlat soliqlariga oid umumiy qoidalar to'g'risidagi qonun yoki boshqa alohida soliq turlari bo'yicha qonunlarda belgilangan muddat ichida to'lanishi lozim.

- Yaponiya soliq tizimida mol-mulknı tekshirish (qidirish), ya'ni majburiy undiruv (xatlash) obyektı bo'ladigan mol-mulknı topish uchun zarur bo'lgan tartib ham mavjud. Bunda, so'roq, tintuv vakolatidan foydalanib amalga oshiriladigan tekshirish bilan birga, ixtiyoriy tekshirish ham o'tkaziladi. Undiruv uchun mas'ul xodim majburiy undiruv ishini olib borish davomida zaruriyatga qarab qarzdorning mol-mulknı tekshirishi, surishtirishi amalga oshiriladi.

Majburiy undiruv ishini olib borish davomida mas'ul xodim xatlanadigan mulk qarzdorga tegishlimi yoki yo'qmi, mulknıng qiymati, mulknı boshqa shaxsga berish yoki unga majburiy undiruvni qaratish imkoniyati va majburiy undiruvni qaysi mulkka qaratish kerakligini tekshirish asosida aniqlashi lozim.

Soliq to'lovchi davlat soliqlarini muddatida to'lamagan taqdirda soliq inspeksiyasi boshlig'i talabnoma yuborib, soliqni to'lash haqida ogohlantiradi. Talabnoma soliqni to'lash haqida ogohlantirish bo'lib, mol-mulknı xatlashdan oldin yuborilishi shart.

Talabnoma yuboriladigan ma'lum bir vaqt o'tgandan keyin ham soliq to'lanmagan taqdirda, soliq to'lovchining mol-mulki xatlanadi. Mulxatlash uni tasarruf qilishni taqiqlaydi va realizatsiya qilish maqsadida majburiy undiruvni mol-mulikka qaratish jarayonining boshlang'ich bosqichi hisoblanadi. Odatda talabnoma yuboriladigan kundan boshlab, 10 kun ichida talabnoma belgilangan davlat solig'i qarzi to'lanmasa, mol-mulknı xatlash boshlanadi hamda ushbu mulk hisobidan soliq qarzdorligi qoplanadi. [8]

3. Kanada hukumatida esa deklaratsiyani kechiktirib topshirganlik uchun jarima va foizlar hisoblanadi.

Jarima soliq qarzdorligining 5 foizi miqdorida undiriladi va bunga qo'shimcha har oyda balans summasidan 1 foiz miqdorda penya hisoblanadi.

Soliq to'lovchi ushbu soliq qarzdorligini va jarimalarnı uzog'i bilan 12 oy ichida to'lashi lozim.

Soliq to'lovchilar tomonidan daromadlar to'g'risida hisobotda 500 AQSh dollar yoki undan yuqori summada ko'rsatmaslik soliq to'lovchi tomonidan hisobot taqdim etmaganlik bilan tenglashtiriladi hamda Federal soliq organi tomonidan quyidagi choralar qo'llanilishiga olib keladi:

Yashirilgan summaning 10 foizi miqdorida jarimaga tortiladi;

Hisobotda ko'rsatilmagan summaga yuqori va past soliq stavkalarining o'rtachasi xususan, 10 foiz va 6 foizning o'rtachasi 8 foiz qo'llaniladi. [9]

4. Avstraliya davlatida soliq to'lovchılarda soliq qarzdorligi vujudga kelsa, soliq organi quyidagilarnı amalga oshiradi:

Soliq qarzdorligiga nisbatan har chorakda foiz (GIS stavkalari) hisoblanadi. Buni quyidagi jadval asosida ko'rishimiz mumkin:

2022-2023-yillar uchun GIS foiz stavkalari

Chorak	GIS choraklik stavkasi	GIS kunlik stavkasi
2023-yil, aprel-iyun	7,89 %	0,02155738 %
2023-yil, yanvar-mart	7,91 %	0,02161202 %
2022-yil oktabr-dekabr	7,98 %	0,02186301 %
2022-yil iyul-sentabr	8,54 %	0,02339726 %

- soliq to'lovchiga murojaat (SMS, myGov dagi xabarlar, telefon va boshqa aloqa tarmoqlari orqali) qilinadi;

- soliq kreditlaridan foydalanishni talab qiladi;

- ayrim qarzlarni undirish uchun Tashqi qarzlarni yig'ish agentligiga yuboriladi.

Noqonuniy foyda topayotgan soliq to'lovchilarga kuchli choralar qo'llaniladi. Kuchli choralarga:

- soliq to'lashdan qasddan qochgan soliq to'lovchilarga audit o'tkaziladi;

- hech qanday yordam berilmaydi.

Shuningdek, soliq qarzidorligi mavjud yakka tartibdagi tadbirkorlarga, sherikchilik asosida tashkil qilingan tashkilotlar va kompaniyalarga nisbatan quyidagi choralar ko'rilishi mumkin:

- sudga da'vo ariza kiritiladi hamda sud tomonidan qarzidorlik tan olinsa, bankrotlik to'g'risida bildirishnoma kiritilishi amalga oshiriladi;

- bankrotlik to'g'risida xabarnoma kelganidan so'ng 21 kun ichida qarzidorligini to'lashi yoki soliq organi bilan reja tuzilishi kerak. Agar soliq to'lovchi bu ishlarni amalga oshirmasa, bankrot deb topiladi;

- soliq organining iltimosnomasiga asosan Federal sudga yoki Federal Magistratlar sudiga korxonani bankrot deb e'lon qilish to'g'risida ariza kiritiladi;

- korxonada 21 kun ichida soliq qarzlarni to'liq to'lab berishi yoki soliq organi bilan reja tuzishi talab etiladi, aks holda soliq organi korxonani Federal sudga uni tugatish to'g'risida ariza bilan murojaat qiladi;

- sud korxonani tugatish to'g'risida qaror chiqarganda, tayinlangan rasmiy tugatuvchi tugatilayotgan korxonaning aktivlarini kreditor (soliq organi va boshqa tashkilotlar) o'rtasida taqsimlaydi. Bundan tashqari, Avstraliya soliq tizimida soliq qarzidorligini kelgusi yil uchun prognozlash qobiliyatiga ega sun'iy intellekt (dasturiy mahsuldan foydalaniladi). [10]

5. Buyuk Britaniyada soliqdan qarzidor bo'lgan soliq to'lovchilar soliq qarzidorligi paydo bo'lganidan so'ng penya va jarimalar kabi jazolardan qochish maqsadida Daromadlar va bojxona (soliq) organi bilan bog'lanishi lozim.

Agar soliq to'lovchilar o'z majburiyatlarini bajara olmasalar Daromadlar va bojxona (soliq) organi tomonidan quyidagi majburiy undiruv choralari ko'riladi:

Daromadlar va bojxona (soliq) organi soliq qarzidorligiga ega jismoniy shaxslarning daromadlaridan yoki nafaqa jamg'armasidan olishi mumkin;

30 000 funt sterlinggacha daromad qiladigan soliq to'lovchilardan 3 000 funt sterling, 90 000 funt sterling topadiganlar uchun 17 000 funt olinadi, ya'ni soliq to'lovchilar

daromadlariga qarab soliq summasi ham o‘zgaradi. Bu jarayon soliq qarzdorligi to‘lanmagunga qadar davom etadi.

Undiruvni quyidagi hollarda to‘xtatilishi mumkin:

- soliq qarzdorligi to‘liq to‘lansa;
- Daromadlar va bojxona (soliq) organi bilan to‘lov rejasi tuzilsa.
- Daromadlar va bojxona (soliq) organi soliq qarzdorligini undirishni xususiy agentliklarga topshiradi;
- Daromadlar va bojxona (soliq) organi soliq to‘lovchining moddiy qiymatga ega bo‘lgan har qanday mulkini sotishi mumkin. Agar sotilgan mulk soliq qarzdorligi summasidan oshsa, soliq to‘lovchiga ortiqcha qolgan summa qaytarilmaydi. Shuningdek, mulk qiymati soliq qarzdorligi summasidan kam bo‘lsa, orasidagi farqni soliq to‘lovchi to‘lab beradi.

- soliq to‘lovchining bankdagi hisobvarag‘idan yoki qurilish jamiyatidan undiriladi.

Sud tartibida soliq qarzdorligi undirilishi mumkin. Bunda soliq to‘lovchi soliq qarzdorligi bilan sud xarajatlarini ham to‘laydi. Quyidagi 2 holatdan loaqal bittasi mavjud bo‘lsa, undiruv sud tartibida amalga oshiriladi:

- soliq qarzdorligi 2 000 funt sterling yoki undan ortiq bo‘lsa;
- soliq qarzdorligi bir yil muddatda ham uzilmay qolgan bo‘lsa. [11]

Xulosa

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, mustaqillik yillaridan boshlab hukumatimiz tomonidan soliq yukini pasaytirilishi, soliq stavkalarining optimallashtirilishi, tadbirkorlik subyektlariga o‘zlarining faoliyatlarini olib borishda qator yengillik va keng imkoniyat yaratilib kelinmoqda. Ammo, shunga qaramay soliq qarzdorligi mavjud bo‘lgan soliq to‘lovchilarimiz talaygina. Muallif fikricha, soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha qarzdorlikni kamaytirish ularni muddatida va to‘liq undirish samaradorligini oshirishda rivojlangan mamlakatlar tajribalari asosida quyidagi takliflar o‘z samarasini beradi:

- mavsumiy xarakterga ega bo‘lgan tadbirkorlik subyektlariga nisbatan soliq stavkalarining Avstraliya tajribasi asosida tabaqalashtirilgan miqdorlarini qo‘llash, kelgusida tadbirkorlik subyektlari rivojlanishi bilan bir qatorda soliq qarzdorligi ulushini qisqarishida o‘zining hissasini qo‘shadi;

- mamlakatda to‘lov intizomini yanada kuchaytirish maqsadida Ispaniya davlat tajribasi asosida soliqlarni kechiktirib to‘layotgan soliq to‘lovchilarga nisbatan penya [12] hisoblash bilan bir paytda moliyaviy jarima qo‘llash amaliyoti budjetga soliq tushumlarini o‘z vaqtida tushumini ta‘minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-sentabrdagi PQ-292-son “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

3. Мороз В.В. (2011) Налоговое администрирование задолженности организаций по налогам и сборам: проблемы взыскания.: дис. канд. экон. наук. – с. 36.

4. Пронин С.Б., Пронин М.С. Взыскание задолженностей по налогам с организаций. // Тематический спецвыпуск журнала «Горячая линия бухгалтера». – 2006 г.

5. A. Jo'rayev. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning dolzarb muammolari. Doktorlik ishi. Avtoreferat. T.: 2006-yil..

6. Borgne E.L. and Bear K. Tax Amnesties: Theory, Trends, and Some Alternatives. Definition and Types of Amnesties // International Monetary Fund. – 2008. P-79.

7. <https://theonestoproblemshop.com> - sayt ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

8. Tangriqulov A, Xomma A, Toshmatov Sh, Norqo'ziev I, Roziqov N. Soliq qarzi va uni undirish. O'quv qo'llanmasi. – T.: “Yangi asr avlodi” nashriyoti – 2010.(51-b).

9. <https://www.canada.ca> - sayt ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

10. <https://www.ato.gov> - sayt ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

11. <https://www.gov.uk> - sayt ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

12. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, 110-modda. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020-yil. – 640 bet.